

MUSTAQIL O'ZBEKISTONDA SPORTNING RIVOJLANISHI

**Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi**

*O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yo 'nalishi talabasi*

**Annotatsiya:** *Sport mardlarning imtihonidir. Mardlik esa o'ziga ishongan ma'naviy va jismoniy jihatdan kuchli insonlarga xos. Bu imtihondan o'tayotgan har bir inson oritdagi oilasi, xalqi va vatanining sha'nidek mas'uliyatni xis qilgan holda g'alaba sari bor kuch-mahorati bilan harakat qiladi. Sportda g'alabani ta'minlovchi eng muxim omil bu irodadir. Irodani mustaxkamlovchi eng muhim vosita esa sportchiga bo'lgan ishonch va motivatsiya.*

**Kalit so'zlar:** *SSSR, "Paxtakor 79", U-23, Rio-2016, "kata dubulg'a", "Tokio 2020", "Gentra", "qor janggi"*

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, sportning paydo bo'lishi ilk sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lgan Qadimgi Yunoniston ya'ni hozirgi Gretsiya davlatida paydo bo'lgan. Ilk olimpiya o'yinlari Zevas sharafiga xar to'rt yilda o'tkazilgan. Olimpiya musobaqasi beshkurashdan iborat bo'lgan. Bunda qatnashchilar uzunlikga va balandlikga sakrash, ot choptirish, nayza uloqtirish va disk uloqtirish bo'yicha bellashganlar. Olimpiyada o'yinlarida uch marotaba g'olib bo'lgan insonlarning xaykali olimp tog'iga joylashtirilar edi. Miloddan avvalgi 394- yilda kuchli zilzila bo'lishi natijasida olimpiyada o'yinlari bekor qilingan. 1876-yilga kelib olimpia o'yinlari tiklandi.

Bizning vatanimizga ilk bor 1912-yilda kirib kelgan sport o'yinlaridan biri bu futbol hisoblanadi. Butun dunyoga mashxur SSSR tuzumi davridagi "Paxtakor 79" jamoasi edi. Bu afsonaviy jamoa tarixda qoldi. Avlodlar ularning super g'alabalarini xotirlab yuradilar. Xozirgi kunda biz bu jamoaning shonli tarixini eslaymiz xolos. Bundan tashqari ilk mustaqil paytlarimiz 1994-yil esa futbolchilarimiz Osiyo chempioni bo'lib qaytdilar. Quruq qo'lbilan emas albatta, birinchi o'rinli sovrin bilan yurtimizga kirib keldilar. G'alabaga sabab bo'lgan gollarni aksariyatini xozirgi kunda murabbiylik lavozimida faoliyat olib borayotgan Mirjalol Qosimov tomonidan raqiblar darvozasiga kiritilgan edi. Keyinchalik o'zbek futbolida sezilarli darajada pastlash kuzatildi. Yildan-yilga natijalarning salbiy tarafga o'zgarishi tufayli bir necha yil istedodli futbolchilar izlandi. Yetuk murabbiylar milliy jamoamizga jalb qilindi, xatto xorijdan murabbiylar olib kelindi, biroq 2017-yil so'ngiga qadar natijalarimiz o'zgarishsiz qoldi. Vanihoyat 2018-yilning yanvar oyidagi Xitoy davlati mezbonlik qilgan U-23 ya'ni 23 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida futbol bo'yicha qit'a chempianati bo'lib o'tdi. Bizning porloq kelajagimizni ilk nurlarnini ko'rsatgan holda milliy terma jamoamiz guruh bosqichidan a'lo darajada o'tdilar. Finalga qadar Yaponiya milliy termajamoasini 4:0 hisobida, Koreya Respublikasining milliy termajamoasini 4:2 hisobida mag'lubiyatga uchratib final ostonasiga yetib bordilar. Bu

ostonadan o'tish juda murakkab bo'ldi. Final o'yini bo'ladigan kuni Xitoy davlatida qattiq qor yog'di, ob-havo yaxshigina og'ir bo'ldi, biroq final qatnashchilari bo'lmish Vetnam va O'zbekiston terma jamoalari futbol maydoniga mardlarcha chiqib keldilar va o'sha kuni bo'lib o'tgan o'yinda xar ikki jamoa xam mardlarcha vatanining sharafini ximoya qildi. Bu o'yin tarixga "qor janggi" nomi bilan kirdi va bu jangda o'yin tugashiga 1,5 daqiqa qolganda biznikilar g'alabani ilib ketishdi. O'yin 2:1 xisobida yakunlandi. O'zbekiston milliy terma jamoasi esa oltin medallarni qo'lga kiritgan holda qit'a kubigini olib vatanimizga yorug' yuz bilan kirib keldilar.

Qahramonlarimiz "Islom Karimov Nomidagi Toshkent Xalqaro Aeraporti"da munosib tarzda kutib olindi. Futbolchilarimiz va murabbiylariga milliy brendimizning so'ngi rusumdagi "Malibu 2" avtomobillari sovg'a qilindi. Yaqin yillar ichida futbolimiz sezilarli darajada ijobiy natijalarga erishmoqda. Isboti o'laroq Temur Kopadze murabbiyligi ostidagi U-23 milliy termajamoamizning Jahon chempionatiga yo'l olganligini aytishimiz mumkin. Bunday natijalarga yurtimizdagi sportga bo'layotgan e'tibor va ajratilayotgan pul mablag'lari ham katta turtki bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yurtimizda futboldan tashqari boshqa ko'plab sport yo'nalishlari ham yil sayin rivojlanib kelmoqda. 2016-yil Braziliya davlatida bo'lib o'tgan "Rio 2016" olimiya o'yinlarida Hasanboy Do'smatov, Fazliddin G'oyibnazarov, Shaxobiddin Zoirov, Shaxram G'iyosov, Baxodir Jalolov, Isroil Madrimov kabi charimqo'lqop ustalari vatanimiz bayrog'ini yuqoriga ko'tarib, madhiyamizni jahon arenalarida yangratib, o'zlarini oltin avlod ekanliklarini isbotlab vatanimizga medallar shodasi bilan qaytdilar. Albatta ular xam munosib ravishda kutib olinib, Prezidentimizning qimmatbaxo sovg'alari va pul mukofotlari bilan taqdirlandilar. Xalq orasida sportga qiziqish ortdi. Davlatimizda sport islohotlari yanada kuchaytirilib, sportchilarga qulay sharoyitlar yaratila boshlandi. Bokschilarimiz jaxondagi kuchli sport maktabiga ega bo'lgan Kolumbiya, Kuba kabi davlatlarning sportchilari bilan "Boks oqshomlari"ni o'tkaza boshlashdi. Har yili bo'lib o'tadigan Jahon chempionatlarida birinchilikni hech kimga bermadilar. Yuqorida ismlari sanab o'tilgan yigitlarning hammasi hozirgi kunda professional boks bilan shug'ullanishmoqda. "Rio 2016" olimpiya o'yinlarida sportning dzyudo yo'nalishi bo'yicha bronza medalini qo'lga kiritgan Buxoro polvoni Rishod Sobirovni ham tanimaydigan odam bo'lmasa kerak. Sportchimizning "katta dubulg'a", "grand-pri" va xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan jami 25 ta yuqori probali medallari bor. Rishod Sobirov olimpiya o'yinlariga uch marotaba qatnashib, har uchchalovida ham bronza medallarini qo'lga kiritgan. Bunday natijalardan so'ng sportchimiz el-yurt iftixori ko'krak nishoni bilan rag'batlantirildi. Bularning ortidan esa Davlat Bobonov, Diyorbek O'razbayev, Gulnoza Matniyozova, Dilnoza Matniyozova, Diyora Keldiyorova kabi dzyudochilarimiz vatanimiz sha, nini munosib ravishda himoya qilib kelishmoqda. "Tokio 2020" olimpiya o'yinlarida Davlat Bobonov dzyudo musobaqalarida munosib ravishda ishtirok etib bronza medalini yurtimiz hisobiga qo'shib qo'ydi. Og'ir atletika sport turi bo'yicha "Oltin avlod" polvonlari

yetishib chiqdi."Rio 2016" olimpiya o'yinlarida og'ir atletika bo'yicha hamyurtimiz Ruslan Nuriddinov olimpiyada rekordini yangilagan holda 237 kilogram toshni boshi uzra baland ko'tarib, tarixga kirdi.Dast ko'tarish,siltab ko'tarish va yakuniy hisob bo'yicha 3ta oltin medalni qo'lga kiritgan holda vatanimizga yorug' yuz bilan kirib keldi.Bunday natijalarni qo'lga kiritgan sportchimiz munosib ravishda rag'batlantirildi(Ikki xonali uy,avtomobil ,pul mukofoti ). Shu tariqa og'ir otletika bo'yicha ham yangi g'alaba va g'oliblarni kashf qila boshladik. Hozirgi kunga qadar yigitlarimizdan Adhamjon Ergashev, Bo'stonliq tumanining polvoni Akbar Jo'rayev, qizlarimizdan esa Kumushxon Fayzullayeva, Tursinoy Jabborova kabi hamyurtlarimiz og'ir otletika sporti bo'yicha vatanimiz bayrog'ini birinchi o'rinlarda turishini ta'minlamoqdalar."Tokio 2020" olimpiya o'yinlarida hamyurtlarimiz uchta oltin, ikkita bronza, umumjamoa xisobida beshta medal bilan vatanimizda ko'tarinki ruhda kutib olindilar. Baxodir Jalolov, Akbar Jo'rayev va Ulug'bek Rashitovlar O'z yo'nalishlarining tengsizi deb topilgan bo'lsalar, Davlat Bobonov va Begzotbek Abdurayimovlar Esa bronza medallarini qo'lga kiritib, kuchli uchlikdan o'rin oldilar. Albatta sportchilarimizning mehnatlarini rag'bati o'laroq ularga Prezident sovg'alari (qimmatbaxo avtomobil, uy-joy va pul mukofoti) topshirildi. Bundan tashqari Osiyo va Jahon birnnchiliklarida Sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilarga oliy ta'limning bakalavr yo'nalishi bo'yicha, hechqanday imtixonlarsiz imtiyozli grand asosida yo'llanmalar beriladi. Sportda faoliyat yurutayotgannarning ko'pchiligi davlatimizdagi mavjud xarbiy soxalarda ham o'z faoliyatini davom ettiradilar.Ayrimlari esa o'z bilim-ko'nikmalarini shogirdlariga o'rgatadi va yaqin yillarda tajribali murabbiy darajasiga erishadi. Rispublikamizda parasportning keng quloch yoyib rivojlanayotgani "Tokio 2021" paraolimpiya o'yinlarida ko'zga tashlandi. Vatandoshlarimiz Yaponiya davlatida yurtimiz sa'nini mardlarcha himoya qildilar. Uchqun Qur'onboyev, Parvina Samandarova, Nurhon Qurbonova kabi sportchilarimiz yettita oltin, to'rtta kumush va sakkizda bronza, umumjamoa xisobida 19 ta medal bilan reytingda kuchli o'nlikga kirdilar. Sportchilarimiz "Islom Karimov Nomidagi Toshkent Xalqaro Aeraporti"da ko'tarinki ruhda kutib olindi. Albatta vatanimizning bayrog'ini jahon arenalarida munosib o'ringa olib chiqqan yurtdoshlarimizning mehnatlari ulug'lanib prizident sovg'asi (qimmatbaxo avtomobil uyjoy va pul mukofoti) topshirildi. Bundan Tasqari delegatsiyamizdagi barcha ishtirok etgan parasportchilarimizning mexnatlari davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan etirof etildi va ularga ham milliy brendimizning qimmatbaxo "Gentra" avtomobillari topshirildi. Taqdirlangan sportchimiz Bahodir Jalolov ko'zida yosh bilan "Men Prezidentimga bergan va'damni bajardim, yuzim yorug' bo'ldi"- deya ta'kidlagan Hozirgi kunga kelib esa nafaqat poytaxtimizda, balki barcha viloyatlarda sport zallarining ochilishi va turli yo'nalishlarda klublarning tashkil etilishi xalqimiz orasida sportga bo'lgan qiziqishni ortib borishi, bundan tashqari sog'lom turmush tarzining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Yoshlarning muntazam ravishda sport bilan shug'ullanishi natijasida Respublika musobaqalarida ishtirok etib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritgan iqtidorlilari

Respublika terma jamoasiga chaqirib olishmoqda. Davlatimiz tomonidan sportga yetarlicha mablag' ajratilgan. Terma jamoadagi sportchilar uch mahal issiq ovqat, oylik maosh, yotoq-joy va mashg'ulotga kerak bo'ladigan dori-darmon bilan ham ta'minlanadilar. Bunga javoban ulardan kutiladigan natija esa vatanimizning nomini dunyoga tanitib, bayrog'ini baland ko'targan holda madhiyasini jahonga eshittirish. Albatta sportchilarimiz ishonchimizni oqlashyapti . O'zlariga berilgan imkoniyatdan unimli foydalanishga bor imkoniyatlarini ishga solib intilmoqdalar. Bunday g'alabalarga erishish uchun mohir ustoz kerak albatta. Hozirgi kunda yuqorida ismlari ta'kidlab o'tilgan bokschilarimizni tarbiyalagan va bilm ko'nikmalarini oshirgan mashhur murabbiy To'lqin Qilichevni tanimaydigan sport muhlisi bo'lmasa kerak. Parasportning Dzyudo yo'nalishi bo'yicha ko'plab yangi iqtidorlarni yetishtirib berayotgan yosh murabbiy Islom Mamajanov ham paradyudo termajamoasining 40% yetakchi sportchilar bilan ta'minlab bergan bo'lishiga qaramay qiziquvchan yangi istedodlarni yetishtirib kelmoqda. Shogirdlariga aytadigan gapi esa "Xarakat qil, hududan so'ra". Bugun o'zingni qiynasang, ertaga g'alaba quchasan" Vatanimizda shunday istedodli va fidokor murabbiylarimiz bor ekan kelajagimizning istiqboli porloq, sportchilarimizga esa omad yor bo'lajak. So'rovimiz bitta: "Vatandoshlarimizning qo'llari doim raqibidan baland kelsin, bayrog'imiz esa eng yuqorida madxiyamiz ohangiga hiron aydayversin"

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO 'YXATI:**

1. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Olimpiada\\_o%CA%BByinlari](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Olimpiada_o%CA%BByinlari)
2. <https://www.bbc.com/uzbek/lotin-37156725>
3. [https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/olimpiya\\_va\\_paralimpiya\\_uyinlari\\_goliblari\\_ragbatlantiriladi](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/olimpiya_va_paralimpiya_uyinlari_goliblari_ragbatlantiriladi)